

ALI IBN USMON HUVIRIY HAYOTI VA IJODI

Saidolimxon Aqilxonov Abdurashid o'g'li

*TDSHU (Toshkent Davlat Sharqshunislik Universiteti) yo'nalishi "Tasavvuf
germenevtikasi".*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abulhasan Ali Ibn Usmon ibn abiy al-Hujviriy al-G'aznaviyini hayoti va hayoti davomidahi ijodi haqida to'liq ma'lumot berilgan. Ali ibn Usmon G'azna yaqinidagi Hujvir qishlog'ida tavallud topgan. Dastlabki Shayx Abul Fazl Muhammad ibn Xatliydan ta'limni oladi. Shu bilan birga ustozdan tariqat ilmini ham o'rganadi. Shundan so'ng Haj safariga chiqadi.*

Kalit So'zlar: *Taqvodor, ustozlar, muhaddislar, Kashfu-l-mahjub, Kitabu-l-fano va baqo, Hadiyat al-Orifin, kitob muallifi.*

Annotation: *This article provides complete information about the life and works of Abulhasan Ali Ibn Usman ibn Abi al-Hujwiri al-Ghaznavi. Ali ibn Usman was born in the village of Hujvir near Ghazna. The first Sheikh Abul Fazl received education from Muhammad ibn Khatli. At the same time, he also learns the science of tariqat from his teacher. After that, he goes on Hajj.*

Key Words: *pious, teachers, muhaddis, Kashfu-l-mahjub, Kitabu-l-fano wa baqo, Hadiyat al-Orifin, author of the book.*

Abulhasan Ali ibn Usmon ibn abiy al-Jullobiy al-Hujviriy al-G'aznaviy hijriy IV- asrning oxirlarida G'azna²⁵ yaqinidagi Hujvir qishlog'ida taqvodor oilalarning birida tavallud topgan. Shu yerda Shayx Abul Fazl Muhammad ibn Xatliydan Keyin ustoz Abu Abbos ibn Ahmad Muhammad Ashkaniy hamda Abulqosim Gurgoniy Xoja Muzaffardan ilm sirlarini o'rganadi. Shu bilan birga ustozdan tariqat ilmini ham o'rganadi. Shundan so'ng Haj safariga chiqadi. Hayotining ko'p qismini safarda o'tkazadi. Farg'onadan Huzistongacha, Hindistondan Suriyagacha bo'lgan mamlakatlarni kezman.

Alloma safar vaqtida va safardan keyin Abul karim Qashiriy, Abusaid Abulxayr, Abuali Faryumodiy singari alloma va muhaddislardan hadis tinglab, yod oladi. U o'zining "Kashfu-l-mahjub" asarida ko'plab asarlar bitganini qayd etadi: "Devon", "Minhoju-d-din" (Dinning to'ri yo'li), "Asroru-l-Hiroq"(Hirqa va Moun sirlari), "Kitabu-l-fano va baqo" (Fano va baqo kitobi), "Kitabu-l-bayon li ahli-l-iyon" (Bayo etilgan mohiyat izhorlari kitobi), "Baru-l-qulub" (Qalblar dengizi), Bulardan tashqari nomi aytilmay Mansul Xalloyning naqlari talqini hamda lymon haqidagi kitoblarning muallifidir. Ammo bu asarlar bizgacha yetib kelmagan.

²⁵ G'AZNA, G'azni — Afg'onistonning Janubiy-Sharqiy qismidagi shahar, G'azni daryosi bo'yida, Kobul—Qandahor avtomobil yo'lida joylashgan. G'azni viloyatining ma'muriy markazi. metallsozlikning qadimgi markazlaridan. Hunarmandchilikda palos, poyabzal, ip gazlama matolari va boshqalar tayyorlanadi. Jun, mo'yna bilan savdo qilinadi. Shaharning barpo bo'lgan davri ma'lum emas. G'aznaga doir ilk ma'lumotlar 7-asrga oid manbalarda uchraydi. O'rta asrlarda O'rta Sharqning muhim madaniy, savdo va siyosiy markazlaridan biri bo'lgan. 10-11-asrlarda G'aznaviyilar davlati poytaxti.

“Kashfu-l-mahjub” asarining to‘liq nomi “Kashf-l-mahjub li arbobu-l-qulub” (Qalb sirlaridan xabardorlar hijoblarining kashf etilishi). Asar laxo‘rda Hujvirli do‘sti abu Sayyid savollariga javob tariqasida yozilgan. Muallif ushbu asar haqida: “Men bu kitobni “Kashful-mahjub” deb atadim. Istagim: ichki nur bilan bezalgan insonlar kitobning nomini o‘qigandanoq uning nima haqida ekanligini darhol anglab yetsinlar.”²⁶

Shuni unutmash kerakki, barcha insonlar ruh haqiqatidan nozik parda bilan to‘silgandir. Olohning do‘stlari bo‘lgan payg‘ambarimiz, aziz-avliyolar bundan mustasno, albatta. Ushbu kitob Haqqa yetishmoq yo‘lida tasavvuf ahlining bergan fikr-mulohazalarini o‘z ichiga olganligi uchun ham shunday nom oldi, boshqacha nom bilan atash o‘rinli emas edi.

Hajviriyning tavallud sanasi ma'lum emas, ammo, uni hijriy IV asrning oxirgi o'n yilligi yoki hijriy V asrning boshlarida, ya'ni Mahmud G'aznaviy davrida tug'ilgan, deb taxmin qilinadi. Usmon Ali ibn Hujviriy Xuroson viloyatining G'azna shahrida zohid va taqvodor oilada tug'ilgan. Hajviriy o'zining oila tarixi va nasl-nasabini tilga olmaydi, lekin Lahoriy hech qanday manba keltirmay, nasl-nasabini Imom Aliga bog'laydi, Ismoil Posho Bag'dodiy "Hadiyat al- Orifin"da²⁷ uni Husayniy deb ataydi, shuning uchun ham uni sayyid ism bilan atashadi ya'ni Sayyid Ali va Sayyid Xujviriy. Iqbol Lahoriy she'rlaridan birida uni Seyyid Hajvir va Maxdum Umm deb ataydi, G'aznada esa payg'ambar avlodidan bo'lganlarni Sayyid deb atalgan.

Hujviriyning boshqa taxalluslari ham mavjud ular orasida Pir Ali va Maxdum Ali ham bor, lekin u Hindiston va Pokistonda ko'pincha "Hazrat Doto Ganj Baxsh" (xazina beruvchi) nomi bilan mashhur. Aytishlaricha, Xoja Moinuddin Chishti o'zining Chilla kechasi tugashi munosabati bilan Hujvir qabri yonida yozilgan she'rlaridan birida unga bu taxallusni qo'ygan.

Boshqa tomondan, Xojaviriya nisbat berilgan "Kashf al- asror" kitobida odamlar uni Ayn Aflas "Ganj baxsh" deb atashgan. Hujviriy Loharda masjid va honaqqohlar qurdirdi. U Lahorda vafot etgan. Uning vafoti sanasi haqida turli fikrlar mavjud: ba'zilar 456, ba'zilar 464, 465 deyishadi. Bir qator zamonaviy tadqiqotchilar uning o'z davrining ulamolari va mutasavviflari bilan bo'lgan uchrashuviga asoslanib, 465- 469 yillar oralig'ini tilga oladilar.

Hujviriy Lahorning o'zida qurdirgan masjid yaqiniga dafn etilgan. Qabrining bir tomonida uning do'sti va hamrohi hisoblangan, o'sha davrning yetuk mutasavvufilaridan biri sifatida tanilgan Shayx Ahmad Hammadi bor. Uning narigi tomonida shogirdi Abu Said Hujviriyning qabri mavjud.

U buyuk so'fiylardan bo'lib, fors tilidagi tasavvufga oid eng qadimgi va muhim manbalardan biri bo'lgan "Kashf al-mahjub" kitobini yozgan. "Kashf ul-mahjub" kitobi so'fiylikdagi birinchi fors nasriy risolalaridan biri bo'lib, g'aznaviylik Ali bin Usmon ibn Hujviyriy tomonidan yozilgan eng qadimiy, eng muhim va to'liq kitoblardan biridir. Bundan

²⁶ Is'hoq Abdulhadiy Qandiliy. “Kashf ul-Mahjub” Al-Majlis al-a'la as-saqofa, Qohira 2007, B:402

²⁷ Ismoil Posho al-Bag'dodiy. Hadiyya al-'arifiin. I, 572;

tashqari, u matnlardan biri bo'lib, fors tilidagi fasohat nasri sifatida ham qabul qilingan. Ilmiy dalillardan xulosa qilish mumkinki, bu kitobning yozilishi 465 yilda boshlanib, 469 yilda tugatilgan.

Mahmudrizo Rajoiyning sa'y-harakati bilan "Kashf ul- Mahjub" kitobi Ganjourda ko'paytiriladi va omma xalqqa taqdim qilinadi. "Kashf ul-Mahjub" kitobi u zotdan qolgan yagona sahih kitob bo'lib, tasavvufdagi birinchi muhim kitob hisoblanadi. Bu kitobda tasavvufning haqiqati va ma'nosi haqida so'z yuritiladi, tasavvufning so'z va atamaları, urf-odat va mazhablari izohlanadi, tasavvufning ko'p sonli namoyondalarining mavqei va e'tiqodlarini o'z ichiga oladi. "Kashf al-mahjub" deb nomlangan ushbu kitob go'zal nasrda yozilgan bo'lib, tasavvuf va tasavvufga oid sahih manbalardan ma'lumotlar kiritilgan.

Dastlab Abul Abbas Shaqoniydan bir qancha ilmlarni o'rgangan. So'ngra Abulfazl Muhammad ibn Hasan Xatlining tariqatini o'rganadi. Abulfazl Xatli ham Abulhasan Basriyning shogirdlaridan edi. Usmon Ali ibn Hujviriy o'qishni tamomlagach, Eronning turli mintaqalariga va hattoki Erondan tashqariga safarlarga boradi. U Suriya, Iroq, Ozarbayjon, Tabariston, Xuziston, Kirmon, Xuroson va Movaroun Nahrga ham boradi va o'z davrining ulamolari hamda mutasavvif olimlari bilan uchrashib, ular bilan suhbatlar qurgan.

Hajviriy ustoz va shayxlari haqida "Kashful-mahjub" da zikr qilinganlardan boshqa ma'lumotlar mavjud emas.

Hijviriy Shomdan Turkistongacha, Qazvin dengizidan tortib hozirgi Pokiston nomi bilan mashhur bo'lgan ko'plab islomiy shaharlardan ko'plab mutasavvif va shayxlar bilan uchrashgan va ulardan ko'plab diniy va tasavvuf ilmlarini olgan. Bu kishilar orasida Iroq safari chog'ida uchrashgan Abu Ja'far Muhammad bin Misboh ham bor.

Nishopur²⁸ safari chog'ida Xoja Muzaffar ibn Hamdonni ziyorat qilib, u bilan o'lim, tirik qolish va eshitish haqida suhbatlashgan bo'lsasa, Abul Abbas Ahmad bin Muhammad Shaqoniydan boshqa ba'zi narsalarni o'rgangan.

Tus shahrida Abulqosim Ko'rag'oniy bilan uchrashib, uning botiniy holi va sirlari haqida suhbatlashdi va undan yo'l-yo'riqlar haqida so'radi.

U vatanida Abu Said Abulxayrning o'g'li Abu Muzaffar va Abu Saidning shogirdi Hasan ibn Mo'deb bilan uchrashib, Hasan ibn Mo'deb unga Abu Saidning Abulhasan Xarqoniy bilan uchrashgan voqeasini aytib berdi. Nihoyat, bu tashriflar va uzoq safardan so'ng Hujviriy Lahorga yetib keldi va u yerda yashadi, garchi Hujviriyning Lahorga kelishining aniq sanasi hali noma'lum bo'lsa-da, Hujviriy Suriyada Xatliga uning o'limigacha xizmat qilgan. Aytish mumkinki, uning Lahorga safari, Xatlining vafoti (453 yoki 460 yillar) da bo'lgan.

²⁸ **Nishopur** — Eronning shim.-sharqiy qismidagi shahar, Xuroson ostonida. Aholisi 160 ming kishi (1998).

Transport yo'llari tuguni. Sug'orma dehqonchilik qilinadigan rayon (paxta, moyli ekinlar; bog'lar, tokchilik; chorvachilik) markazi. Oziq-ovqat va ko'n sanoati korxonalari bor. Shahar yaqinidan feruza qazib olinadi. Sha-harga 3-asr o'rtalarida asos solingan. Shahar nomini sosoniylar shohi Sho-pur I (yoki Shopur II) nomi bilan bog'laydilar. Shaharni 7-asr o'rtalarida arablar egallagan. 9-asrda Tohiriylar davlati, 10-asrda Somoniylar davlatining Xuroson noibli poytaxti. N. 9—12-asrlarda Urta Sharqning muhim iqti-sodiy markazlaridan edi. 1153-yilda o'g'uzlar, 1221-yilda mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan, aholisi deyarli qirib tashlangan. 14—15-asrlarda shahar qayta tiklandi, biroq iqtisodiy ahamiyati pasayib bordi. 1722-yilda af-g'onlar tomonidan vayron qilingan. Nishopurda fors shoiri Umar Xayyom va Fa-riduddin Attor yashab, ijod qilgan va o'sha yerga dafn etilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ta`lim to`g`risida”: O`zbekiston Respublikasining qonuni, Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: 1997.
2. O`zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi Barkamol avlod - O`zbekiston Taraqqiyotining poydevori. T.: 1997.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari
4. I.A. Karimov. Barkamol avlod –o`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997.
5. I.A. Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma`naviyat“, 2008.
6. I.A. Karimov. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O`zbekiston. 2011.
7. Jalilova M., Ne`matova G. Takrorlash mashg`ulotlarini “Topqirlar bellashuvi“ tarzida o`tkazish. Til va adabiyot ta`limi, 1994. 2-3-soni. 36-37- bet.
8. Matchonov S. va b. Boshlang`ich sinf o`qish darslarini ilg`or pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etish. –T., Yangiyo`l poligraf serfis. 2008.